XORAZM VILOYATI GURLAN TUMANI HOKIMI
QAROR

2023 - yil 31 - avgust 485-12-171-Q/23 Gurlan tuman hokimligi

Gurlan tumanidagi maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomning 39-bandiga asosan tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida Gurlan tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2023-yil 14-avgustdagi 01-191-son yozishmasini ko‘rib chiqib “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN

1. Gurlan tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2023-yil 14-avgustdagi 01-191-son yozishmasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Gurlan tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror “Gurlan hayoti” gazetasida e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Gurlan tuman hokimining 2022-yil 31-maydagi “Gurlan tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi 479-12-171-Q/22-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari M.Urazmetov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **U.Jumaniyazov**

Gurlan tuman hokimining
2023-yil 31-avgustdagi
485-12-171-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Gurlan tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)

RO‘YXATI

№	Umumta’lim muassasasi tartib raqami	Umumta’lim muassasasi joylashgan manzil	Umumta’lim muassasasiga biriktirilgan hudud (MFY yoki ko‘cha)
1	1-son AFChO‘DIM	Gurlan shaharchasi Shodlik mahallasi Xizreliyop ko‘chasi 49- uy	“Madadkor” MFY - Bobur ko‘chasi (4 ta xonadon), Obod manzil va Bog‘zor ko‘chalarining ko‘p qavatli uylari (76 ta xonadon), Meros ko‘chasining Bog‘zor ko‘chasi bilan kesishish joyigacha (55 ta xonadon), “Gulshan” MFY - barcha ko‘chasi (338 ta xonadon), “Bog‘iston” MFY - barcha ko‘chasi (426 ta xonadon), “Shodlik” MFY - barcha ko‘chasi (334 ta xonadon), “Fidokor” MFY - Xorazm, J.Manguberdi, Amu sohili ko‘chalari (345 ta xonadon)
2	2-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Gurlan shaharchasi Gulshan mahallasi Pahlavon Mahmud ko‘chasi 66-uy	Barcha hududlardan qabul qilinadi.
3	3-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Gurlan shaharchasi Yangibog‘ mahallasi Ziroatchilar ko‘chasi 13-uy	“Yangibog‘” MFY - Tinchlik, Xizreliyop, Ibn Sino, Gulzor, Shodlik, O‘rikzor, Sevinch, Sanoatchi, Buyuk maqsad, Istiqbol, Ziroatchilar ko‘chasi va ko‘p qavatli uylar. “Madadkor” MFY - Binokor, Meros, Beruniy, Zarbuloq, Umar Xayyom, Xizreliyop, Bobur, Madadkor, Ozodlik, Qutlug‘ qadam, Yangilik, Yangilik-1, Ziroatchilar va Binokor ko‘chalari. “Nurobod” MFY -Xizreliyop ko‘chasi juft tomoni 44-uydan 82-uygacha, P.Mahmud ko‘chasining juft tomoni 100-uydan 142-uygacha. Nurafshon, Saxovat, Zargarlik, Xalqobod, Lolazor, Ixlos, Ziroatchilar ko‘chasi.
4	4-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Gurlan shaharchasi Ishonch mahallasi Alpomish-1 ko‘chasi, 4-uy	“Ishonch” MFY – Nukus, Mo‘tabar, Xazina, Quyoshli yurt, Alpomish, Alpomish-1, Qo‘yboqlar, Darxos, Yoshlik, K.Ataniyozov, Istiqlol, Istiqlol-1, O‘zbegim, O‘zbegim-1, O‘zbegim-2, Hamroh va So‘g‘diyona ko‘chalari. “Yangi asr” MFY - Xosminor, Xosminor-1, Nodirabegim, Mangulik, Sayhun, Mustaqillik va P.Mahmud ko‘chalari
5	5-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Gurlan shaharchasi Navbahor mahallasi Qadriyat ko‘chasi 9-uy	“Ma’rifat” MFYning barcha ko‘chasi. “Navbahor” MFY – Mirzo Ulug‘bek, Oybek, Hulkar, Qadriyat, Sharq ziyati, Musavvirlar ko‘chalari, “Bog‘ishamol” MFY, “Sovunchi” MFY - dan 26 ta xonadon.
6	6-son AFChO‘IM	Gurlan shaharchasi Shodlik mahallasi Bobur ko‘chasi 43- uy	“Fidokor” MFY – O‘qituvchilar va A.Qodiriy ko‘chalari.
7	7-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Vazir qishlog‘i Nurafshon mahallasi Nurziyo ko‘chasi	“Nurafshon” MFY, “Esabiy” MFY - Buyuklik sari, Qoratol, Qoratol-1, Qoratol-2, Qoratol-3, Qoratol-4, Qoratol-5, Qoratol-6, Yashil makon, Yashil makon-1 ko‘chalari.

8	8-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Vazir qishlog‘i Mevazor mahallasi Taraqqiyot ko‘chasi 19-uy	“Mevazor” va “Do‘stlik bog‘i” mahallalari
9	9-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Vazir qishlog‘i Esabiy mahallasi Vazir bog‘i ko‘chasi	“Esabiy” MFY - dagi Buyuklik sari, Qoratol, Qoratol-1, Qoratol-2, Qoratol-3, Qoratol-4, Qoratol-5, Qoratol-6, Yashil makon, Yashil makon-1 ko‘chalaridan tashqari barcha ko‘chalar.
10	10-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Vazir qishlog‘i Boldoqli mahallasi	“Bo‘zqal’a” MFY - Qorako‘z, Qahramon, Imkon, Xolis ko‘chalari. Boldoqli MFY - Yuzgujum, Ko‘hinur, Diyor, Hikmat, Mahorat, Faxr, Mo‘jiza, Anjirzor, Boldoqli, Muruvvat, Muruvvat -1, Muruvvat -2, Muruvvat -3, Muruvvat -4, Imkon, Qahramon ko‘chalari.
11	11-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Vazir qishlog‘i Dehqonobod mahallasi Madaniyat ko‘chasi 24-uy	“Dehqonobod” MFY barcha ko‘chalari.
12	12-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Vazir qishlog‘i Boldoqli mahallasi	“Bo‘zqal’a” MFY - Shuhrat-8, Bo‘zqal’a-14, Ilg‘orlar-20 Sh.Rashidov-34, Barhayot-47, Imkon-47, O‘zgarish-39, Xolis-24, Bog‘ishamol-19 ko‘chalari. “Boldoqli” MFY - Boldoqli-57, Barhayot-16, Imkon-45 va qisman - Hikmat-45 ko‘chalari.
13	13-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Vazir qishlog‘i Oqqum mahallasi Mehmondo‘st ko‘chasi 72-uy	“Oqqum” MFY - Kosiblar, Boqiylik, Sadoqat, Mirishkor, Namuna, Elparvar, Mehmondo‘st ko‘chalari va Oqqum ko‘chasi 1-uydan 31-uygacha. “Olchin” MFY – Ezgu niyat, Ezgu niyat-1, Ezgu niyat-2, Mehmondo‘st. Oqqum ko‘chalari.
14	14-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Vazir qishlog‘i Olchin mahallasi Mehmondo‘st ko‘chasi 34a-uy	“Olchin” MFY - Sohibqiron, Sohibqiron-1, Sohibqiron-2, Sohibqiron-3, Olchin, Olchin-1, Olchin-2, Olchin-3, Olchin-4, Olchin-5, Hurmakon, Hurmakon-1, Hurmakon-2, Fitrat, Fitrat-1, Bog‘ieram, Bog‘ieram-1, Bog‘ieram-2, Bog‘ieram-3, B.Mashrab, Yo‘lchi yulduz, Yosh kuch ko‘chalari va Mehmondo‘st ko‘chasidan 32-uydan 62-uygacha, Oqqum ko‘chasi 12-uydan 24-uygacha, Nurli iz ko‘chasi 32-uydan 74- uygacha.
15	15-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Vazir qishlog‘i Qangli mahallasi ;	“Qangli” MFY - Shabada (1-uydan 60-uygacha), Obihayot (1-uydan 64-uygacha), Uvaysiy (1-uydan 42-uygacha), Olchazor(1-uydan 60- uygacha), Shiroq (1-uydan 64-uygacha), Nafosat (1-uydan 74-uygacha), Yaxshi niyat (1-uydan 60-uygacha), Salomatlik (1-uydan 16-uygacha), Sharq gavhari (1-uydan 60-uygacha), Fayzli olam (1-uydan 66-uygacha), -Zabardast (1-uydan 25-uygacha), Zafarobod ko‘chasi (1-uydan 60-uygacha), Zamin ko‘chasi (1-uydan 34- uygacha).
16	16-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Do‘simbiy qishlog‘i Do‘simbiy mahallasi Mang‘it yo‘li ko‘chasi	“Do‘simbiy” MFY –Do‘simbiy, Mang‘it yo‘li, Mang‘it yo‘li-1, Farovon, Gurlan yo‘li, Kashfiyotchilar, Mang‘it arna, Shohbika, Samarqand, Samarqand-1, Samarqand-2, Yangiyop, Yangiyop-1, Yangiyop-2, Buyuk ipak yo‘li, Buyuk ipak yo‘li-1, Buyuk ipak yo‘li-2, Mangubuloq, Mangubuloq-1, Yurtparvar, Yurtparvar-1, Yurtparvar-2, Momoko‘pir, Momoko‘pir-1, Momoko‘pir-2, Momoko‘pir-3, Momoko‘pir-4, Bekpolvon, Bekpolvon-1, Bekpolvon-2, Vatan, Xo‘jaovul, Vahmchi ko‘chalari.

17	17-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Do‘simbiy qishlog‘i Marbo‘gat mahallasi G‘allakor ko‘chasi	"Marbo‘gat" MFY - dagi barcha ko‘chalar. Guliston qishlog‘i "Do‘stlik" MFY – Shafaq, Marvarid, Kamar ko‘chalari, "Taxtako‘pir" MFY - Qardoshlik ko‘chasi.
18	18-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Do‘simbiy qishlog‘i Taxtako‘pir mahallasi Chinor ko‘chasi	“Taxtako‘pir” MFY – Chinor, Chinor-1, Barkamollik, Saodat yo‘li, Usta ovul, Charog‘on, Charog‘on-1, Charog‘on-2, Charog‘on-3, Yangi qurilish, Ziyokor, Nurli kelajak, Olmabog‘, Zarqaynar, Chorbog‘, Chorbog‘-1 ko‘chalari.
19	19-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Xizir eli qishlog‘i Ziyokor mahallasi	“Ziyokor” MFY - Boboyurt, H.Olimjon, A.Navoiy, Ibn Sino, Hamdo‘stlik, Quvonch, Hurvatan, Ma’naviyat, Birodarlar, Zebuniso, Zebuniso-1, Zebuniso-2, Zebuniso-3, Zebuniso-4, Navro‘z, Nurli zamin, Hurzamon, O‘zlik ko‘chalari.
20	20-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Xizir eli qishlog‘i Dehqon mahallasi Bobodehqon ko‘chasi 36-uy	“Dehqon” MFY - barcha ko‘chalari.
21	21 -son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Olg‘a qishlog‘i Sovunchi mahallasi Qizilqum 14-uy	“Paxtachi” va “Sovunchi” MFY - (Fazogir, Uch yog‘och, Hunarmand, Kabutar, Navqiron, Xaloskor, Anhorbo‘yi va Anhorbo‘yi berk ko‘chalaridan tashqari barcha ko‘chalar)
22	22-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Olg‘a qishlog‘i Olg‘a mahallasi Olg‘a ko‘chasi 22-uy	“Olg‘a” mahallasining barcha ko‘chalari.
23	23-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Olg‘a qishlog‘i Jaloyir mahallasi Izzat-ikrom ko‘chasi 15-uy	“Jaloyir” mahallasining barcha ko‘chalari.
25	25-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Saxtiyon qishlog‘i Obod mahallasi Maysazor ko‘chasi 63-uy	“Obod” mahallasidagi barcha ko‘chalar.
26	26-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Eshimjiron qishlog‘i Moyli mahallasi Moyli ko‘chasi 7-uy	”Moyli” va ”Yormish” mahallasidagi barcha ko‘chalar.
27	27-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Eshimjiron qishlog‘i Qatariq mahallasi Bahor ko‘chasi	“Qatariq” mahallasining barcha ko‘chalari.
28	28-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Eshimjiron qishlog‘i Eshimjiron mahallasi	“Eshimjiron” MFY dagi barcha ko‘chalar.
29	29-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Birlashgan qishlog‘i Nukus mahallasi	“Nukus” MFY Bilimdonlar, Buyuk Turon, Bashariyat, Xotira, Tutbog‘, Kelajak sari, A.Forobiy, Intilish, Lochin ko‘chalari
30	30-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Birlashgan qishlog‘i Paxtakor mahallasi Kelajak ovozi ko‘chasi	“Paxtakor” va “Nurli yo‘l” MFYdagi barcha ko‘chalar.
31	31-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Birlashgan qishlog‘i Birlashgan mahallasi	“Birlashgan” mahallasidagi barcha ko‘chalar.
32	32-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Xizir eli qishlog‘i Navbiryop mahallasi	“Navbiryop” MFY A.Navoiy, Ibn Sino, H.Olimjon, Navbiryop, Kumush tola, At-Termiziy, J.Rumiy, Hurzamon, Xizr eli, O‘rnak, Fidokorlar ko‘chasi va yo‘lak ko‘chalari.
33	33-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Guliston qishlog‘i Do‘stlik mahallasi Bog‘cha ko‘chasi	“Do‘stlik” MFYning Shafaq, Marvarid, Kamar ko‘chalaridan tashqari barcha ko‘chalari. “Navro‘z” MFYning Arnabo‘yi ko‘chasidan tashqari barcha ko‘chalari.

34	34-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Guliston qishlog‘i Shang‘i mahallasi Ko‘rkam ko‘chasi	“Shang‘i” MFYdagi Rohatbaxsh, Ko‘rkam, Intizor, Abay, Arnavul, Mirlar, Tong yog‘dusi ko‘chalari.
35	35-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Guliston qishlog‘i Shang‘i mahallasi Navo ko‘chasi	Shang‘i MFYdagi Navo, Baynalmilal, Baynalmilal-1, Baynalmilal-2 hamda Xalqparvar ko‘chalari.
36	36-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Sholikor qishlog‘i O‘yilma mahallasi Kattabog‘ ko‘chasi 1-uy	“O‘yilma” MFYdagi barcha ko‘chalar hamda Guliston qishlog‘i “Navro‘z” mahallasi Arnabo‘yi ko‘chasi.
37	37-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Sholikor qishlog‘i Chinobod mahallasi Orzu-umid ko‘chasi 1-uy	“Chinobod” MFYning Yangi O‘zbekiston ko‘chasidan tashqari barcha ko‘chalari hamda Yangibozor tumani Bog‘olon qishlog‘i “Katli” mahallasidagi Sanjar va Oltin Meros ko‘chalar.
38	38-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Sholikor qishlog‘i Besh uy mahallasi Ravnaq ko‘chasi 1-uy	“Besh uy” MFYdagi Otkorma massivida joylashgan ko‘p qavatli uylar hamda aholi xonadonlaridan tashqari barcha ko‘chalar
39	39-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Gurlan shaharcha Navbahor mahallasi	“Navbahor” MFY - Nurli yo‘l, Bunyodkor, Obodlik, Usmon Nosir, Dilkash, Olmazor-1, Olmazor-2, Olmazor-3, Oydin diyor, Gulshandiyor, Afrosiyob, Me’mor, Yangiyer. Xonobod, Hamroz, Urganch-1, Urganch-2 va Mustaqillik ko‘chalari.
40	40-son AFChO‘IM	Vazir qishlog‘i Oqqum mahallasi Mehmondo‘st ko‘chasi 40-uy	“Oqqum” MFY Mehmondo‘st ko‘chasi (1-uydan 16-uygacha, 18,20,22-uydan 30-uygacha, 41-uydan 53-uygacha), Mirishkor ko‘chasi (1-uydan 54-uygacha) Yoshlik ko‘chasi (1-uydan 21-uygacha, 32-uydan 45-uygacha) Elparvar ko‘chasi (1-uydan 46-uygacha) Oqqum ko‘chasi (1-uydan 36- uygacha)
41	41-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Birlashgan qishlog‘i Nukus mahallasi	“Nukus” MFY Matonat, Nukus bo‘yi, Tafakkur, Yelkadosh, Muzaffar, Anorzor, Tashabbus, Anhor bo‘yi, Umid gulshani, Samo, Gujumzor ko‘chalari.
42	42-son AFChO‘IM	Gurlan shaharchasi Bog‘iston mahallasi Shohimardon ko‘chasi	“Fidokor” MFY O‘qituvchilar, A.Qodiriy, Xorazm, J.Manguberdi, Amu sohili ko‘chalari. “Bog‘iston” MFY N.Kubro va yo‘lak ko‘chalari, Osiyo, Shajara, Shajara-1, Shohimardon, Shohimardon-1, A.Yassaviy, A.O‘tar, Sohibkor, Ishonch, Xizreliyop ko‘chalari.
43	43-son IMI	Gurlan shaharchasi Shodlik mahallasi Bobur ko‘chasi 71 uy	Barcha hududlardan tanlov asosida.
44	44-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Saxtiyon qishlog‘i Chakkalar MFY	“Chakkalar” MFY Iste’dod, Mirob, Paxtaobod ko‘chalari va Bojimon ko‘chasining 51-uyidan 74-uyigacha. Saxtiyon MFY Amir Temur, Buyuk kelajak, Saxtiyon-1, Saxtiyon-2, Fidoyilar, Ko‘makdosh, Muxtasar, Muxtasar-1, Bodisabo, Javohir, Shodiyona, To‘maris, Chamanzor, Saxtiyon, Quruvchi ko‘chalari
45	45-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Sholikor qishlog‘i Besh uy mahallasi E’zoz ko‘chasi	“Besh uy” MFY Otkorma massivida joylashgan ko‘p qavatli uylar hamda aholi xonadonlari va Chinobod mahallasining Yangi O‘zbekiston ko‘chasi